

Turdaliyeva Fotima Miraliyevna

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

“San’atshunoslik va amaliy san’at” fakulteti

“San’at jurnalistikasi” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek milliy amaliy san’atining muhim yo‘nalishi hisoblangan zargarlik san’atining tarixiy taraqqiyoti Buxoro, Xiva, Samarqand, Qo‘qon va Toshkent zargarlik maktablarining o‘ziga xos uslubiy xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Tadqiqot davomida tarixiylik, qiyosiy tahlil va san’atshunoslik metodlaridan foydalanildi. Natijada zargarlik san’ati xalqning estetik qarashlari, urf-odatlari hamda milliy identifikatsiyasini shakllantiruvchi muhim madaniy meros ekani asoslandi.*

Kalit so‘zlar: *zargarlik, amaliy san’at, Buxoro, Xiva, Qo‘qon, Samarqand, Toshkent, maktablari, tumor, milliy an’ana, uslub, xususiyat, estetika, erf-odat, madaniy meros, milliy identifikatsiya.*

Аннотация. *В этой статье рассказывается об историческом развитии ювелирного искусства, которое считается важным направлением узбекского национального прикладного искусства, о специфических стилистических особенностях Бухарской, хивинской, Самаркандской, кокандской и Ташкентской ювелирных школ. В ходе исследования использовались методы историзма, сравнительного анализа и искусствоведения. В результате было обосновано, что ювелирное искусство является важным культурным наследием, формирующим эстетические взгляды, традиции и национальную идентичность народа.*

Ключевые слова: *прикладное искусство, Бухара, Хива, Коканд Самарканд, Ташкент, школы, амулет, национальная традиции, стиль, особенность, культурное наследие, национальная идентичность, ювелирное искусство, Бухара, декоративное искусство, золото, серебро, наследие.*

Annotation. *This article will talk about the historical development of jewelry art, which is considered an important direction of Uzbek national applied art, as well as the distinctive methodological features of Bukhara, Khiva, Samarkand, Kokand and Tashkent jewelry schools. During the study, methods of historicism, comparative analysis and art studies were used. The result was based on the fact that jewelry art is an important cultural heritage that forms the aesthetic vision, Customs and national identity of the people.*

Keywords: *jewelry, Applied Arts, Bukhara, Khiva, Kokand, Samarkand, Tashkent, schools, amulet, national tradition, style, ERF-custom, cultural heritage, national identity, jewelry art, Bukhara, decorative art, gold, silver, heritage.*

Kirish: Zargarlik insoniyat tarixidagi eng qadimgi san’at turlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston hududi qadimdan Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashganligi sababli bu yerda hunarmandchilikning turli tarmoqlari rivojlangan. Ular orasida zargarlik san’ati

alohida o‘rin egallaydi. Arxeologik topilmalar shuni ko‘rsatadiki, miloddan avvalgi IV–III asrlarda Baqtriya, So‘g‘d va Xorazm hududlarida oltin va kumushdan yasalgan taqinchoqlar keng tarqalgan.

Zargarlik san‘atining tarixiy taraqqiyoti. Qadimgi davrda zargarlik buyumlari asosan marosimlarda ishlatilgan. Miloddan avvalgi davrlarda taqinchoqlar nafaqat bezak, balki diniy himoya vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Tumorlar va ramziy naqshlar bunga misol bo‘ladi. Dalvarzintepa, Afrosiyob va Tuproqqal‘a yodgorliklaridan topilgan tilla taqinchoqlar yuqori badiiy darajani namoyon etadi. Dalvarzintepa topilmalarida: tilla bilaguzuklar, marjonlar, sirg‘alar, toj qismlari, firuza bilan bezatilgan uzuklar topilgan. Bu tilla buyumlar qadimgi zargarlik san‘ati yuqori darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Buxoro, Samarqand, Xiva va Qo‘qon hududlarida shakllangan zargarlik maktablari o‘ziga xos bezak uslublari bilan mashhur bo‘lgan.

XVIII asrda Buxoro zargarlik san'ati amirlik saroyi, shahar hunarmandchilik bozorlari va “ustoz–shogird” tizimi orqali rivojlangan. Aniq XVIII asr namunalari kam saqlangan bo‘lsa-da, tarixchilar va muzey kolleksiyalari asosida Buxoro maktabi shakllangani isbotlangan. Keyin bu an'ana XIX asrda eng yuqori nuqtaga chiqqan.

XIX asrda Buxoro Amirligi zargarlari ayollar uchun: tillaqosh, zebigardon, bilaguzuk, tumorcha, sirg‘a, sochpopuk kabi buyumlar tayyorlagan. Erkaklar uchun esa kamar bezaklari, qilich qinlari va ot anjomlari ishlab chiqarilgan.



Rasm 1. GARMDORILI sirg‘alar, taxminan 1885 yil. Kluazon emal bilan qoplangan oltin bilan qoplangan kumush. Foto Chikago San‘at Instituti tomonidan taqdim etilgan.

Markaziy Osiyo zargarlik san‘ati, maktablari va xususiyatlari.

XVIII–XIX asrlarda Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarida zargarlik san‘ati rivojlangan. Ayniqsa:

Buxoro — filigran usuli

Xorazm — kumush taqinchoqlar

Qo‘qon — rangli toshli bezaklar bilan mashhur bo‘lgan.

Zargarlikning ramziy ma‘nolari

San’at asarlarida zargarlik quyidagi ramzlarni ifodalaydi:, hokimiyat, boylik, muhabbat, nikoh, diniy e’tiqod, himoya tumori, ayollik go’zalligi, Toj esa hokimiyat timsolidir.

Buxoro zargarlik markazlari (manzillari)

Toki Zargaron: XVI asrda qurilgan, XVIII asrda ham asosiy zargarlar bozori bo’lgan. “Zargarlar gumbazi” deb atalgan. Bu yerda oltin, kumush, toshlar bilan ishlovchi ustalar joylashgan. Amir saroyi uchun maxsus buyurtmalar shu yerda tayyorlangan.

Ark of Bukhara-Amir saroyi: Qimmatbaho taqinchoqlar, tojlar, marosim buyumlari ishlangan. Lyabi-Hauz atrofida hunarmand mahallalari: Zargarlar, misgarlar, kashtachilar joylashgan hudud. Buxoro zargarlik maktabi xususiyatlari: Buxoro maktabi O’rta Osiyoda eng nufuzli maktablardan biri hisoblangan.

Asosiy belgilar:

- oltindan ko‘proq foydalanish
- kumushni zarhallash
- firo‘za
- marjon
- dur
- yoqut
- shisha toshlar
- filigran (nozik sim ishlovi)
- granulyasiya
- naqqoshlik
- o‘ymakorlik
- osilma elementlar

Manbada Buxoro ustalari boshqa shaharlarga ham moda belgilagani aytilgan.

XVIII asrdagi asosiy zargarlik turlari:

❖ **Tillaqosh / Mohi tillo** - kelinlar boshiga taqiladigan peshona bezagi

Mohi Tillo-oy shaklida, firo‘za bilan bezatilgan, baxt ramzi

❖ **Zebi Gardan -bo‘yin taqinchog‘i** - marjon, firo‘za, kumush, kelin sepining muhim qismi bo‘lgan.

❖ **Zebi sina-ko‘krak bezagi** - katta hajmli, muhofaza ramzi

❖ **Gajak- soch yoki quloq yoni bezagi** - bosilma zanjirlar, harakatlanuvchi elementlar

❖ **Sarsuzan / Jiga-sochga qadaladigan bezak** - qush shakllari, geometrik shakllar

❖ **Uzuklar- muhr uzuk** - ayollar uzuklari, diniy yozuvli uzuklar

❖ **Bilaguzuk- qo‘l bezaklari**

❖ **Sirg‘a**- Buxoro sirg‘alari - Buxoroda qush shaklidagi sirg‘alar mashhur bo‘lgan

Ishlash texnologiyalari: XVIII –XIX asrlarda qo‘l mehnati asosiy bo‘lgan:

- quyish
- bolg‘alash
- kavsharlash
- o‘yish
- naqsh tushirish
- filigran
- donalash (granulation)
- emal

Xom ashyo- Material

- Oltin-Badaxshon, savdo yo‘li
- Kumush-Eron, mahalliy bozor
- Firo‘za-Nishopur

- Marjon-Hindiston
- Dur-Fors ko‘rfazi
- Lojuvard-Afg‘oniston

Bu Buxoroning Buyuk ipak yo‘lida joylashgani bilan bog‘liqdir.

Amerikaning Art Institute of Chicago muzeyida Buxoro zargarligi kolleksiyasi saqlanadi. Ular Buxoro taqinchoqlari nafaqat bezak, balki:

- ijtimoiy maqom
- himoya ramzi
- nikoh marosimi
- diniy ma‘no borligini ta’kidlaydi.

«Dekorativ an‘analar: Buxoro bezaklari» Chicagodagi San‘at Instituti islomiy san‘at bo‘limi 50-galereyasida 2019-yil 30-iyunda namoyish etilgan.



2. XIX asr oxiriga yaqin davrdan ikkita Bilaguzuk- qo‘l bezaklari. Kumush, turkuaz va shisha toshlar bilan bezatilgan. Fotosuratlar Chikago San‘at Instituti tomonidan taqdim etilgan.

3-rasm. Qur‘onni ko‘chirish uchun quti, taxminan 1890–91. Oltin bilan qoplangan kumush, klyuzone shishasi va teri bilan.. Foto Chikago San‘atlar Instituti tomonidan taqdim etilgan.



Rasm 4. Qalam qutisi 1912 yil atrofida, «A.H. 1330» yozuvi bilan. Eritilgan kumushdan va klozone email bilan. Fotosuratlar Chikago San‘at Instituti tomonidan taqdim etilgan.

Rasm 5. 1883 yilga yaqin email qoplangan quti. Kluazone emailli kumush. sovg‘alar. Suratlar Chikago San‘at Instituti tomonidan taqdim etilgan.

Zamonaviy davrda zargarlikning ahamiyati

Bugungi kunda Hunarmand uyushmasi tomonidan milliy zargarlikni tiklash ishlari olib borilmoqda. Turizm rivojlanishi natijasida milliy taqinchoqlarga qiziqish ortmoqda.

O‘zbekiston amaliy san’at muzeyi va Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi kolleksiyalarida noyob namunalar saqlanmoqda.

Zamonaviy san’atda zargarlik motivlari

Bugungi kunda zargarlik nafaqat amaliy san’at, balki kontseptual san’at obyekt sifatida ham qaralmoqda. Salvador Dalí zargarlik kolleksiyalari yaratgan. Cartier va Tiffany & Co. mahsulotlari ko‘plab moda fotosuratlari va san’at ko‘rgazmalarida namoyish qilinmoqda. Zamonaviy installyatsiya san’atida zargarlik identitet va gender masalalari bilan bog‘lanmoqda.

Zamonaviy davrda zargarlik va amaliy san’atni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash

O‘zbekistonda milliy hunarmandchilik, xususan zargarlik san’atini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar ushbu sohaning iqtisodiy va madaniy rivojiga xizmat qilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-son Farmoni “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hujjati milliy amaliy san’at rivojida muhim bosqich bo‘ldi. Mazkur farmon asosida:

- “Hunarmand” uyushmasi faoliyati kengaytirildi;
- ustalarga soliq imtiyozlari berildi;
- milliy hunarmandchilik mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatlari oshirildi;
- yoshlarni an’anaviy kasblarga jalb qilish tizimi yaratildi.
- Mazkur farmon zargarlik ustalarining iqtisodiy faoliyatini rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-91-son Farmoni “Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qabul qilinib, amaliy san’at turlarini keng qo‘llab-quvvatlash belgilandi. Ushbu hujjat asosida:

- oilaviy hunarmandchilik rivojlantirildi;
- xotin-qizlar bandligini ta‘minlash kuchaytirildi;
- milliy zargarlik mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga olib chiqish mexanizmlari kengaydi.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-iyuldagi PF-104-son Farmoni “Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish sohasini yanada rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hujjati bevosita zargarlik sanoatiga qaratilgan muhim normativ asos bo‘ldi. Ushbu farmonda:

- mahalliy zargarlik mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirish;
- xalqaro standartlarni joriy etish;
- milliy brendlarni rivojlantirish;
- zamonaviy dizayn va texnologiyalarni joriy qilish;
- zargarlik sohasi uchun professional kadrlar tayyorlash vazifalari belgilandi.

Bu esa an’anaviy zargarlik san’atining zamonaviy dizayn bilan integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, 2025-yil PQ-207-son Prezident qarori orqali zargarlik ishlab chiqaruvchilarini qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etildi. Mazkur qaror orqali eksport salohiyatini oshirish, xomashyo bazasini mustahkamlash hamda yangi ish o‘rinlari yaratish maqsad qilingan. Natijada bugungi kunda zargarlik nafaqat tarixiy-madaniy meros namunasi, balki kreativ industriya va milliy iqtisodiyotning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlanmoqda.

Xulosa: XVIII asr Buxoro zargarligi — saroy madaniyati, islom estetikasi va Ipak yo‘li savdosining birlashgan namunasi. Buxoro maktabi keyinchalik Samarqand, Qo‘qon va Xiva zargarchiligiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Zargarlik san’ati insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, tasviriy san’atning turli yo‘nalishlarida muhim badiiy unsur sifatida namoyon bo‘lgan. Qadimgi davrdan zamonaviy san’atgacha zargarlik buyumlari estetik did, ijtimoiy maqom va ramziy ma’nolarni ifodalab kelmoqda.

Ayniqsa O‘zbekiston hududidagi tarixiy zargarlik maktablarini chuqur o‘rganish milliy madaniy merosni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Zargarlik san’ati xalqning estetik tafakkuri, ijtimoiy hayoti va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim san’at turi hisoblanadi. Ularning tasviriy san’atdagi aks etishi milliy madaniyat tarixini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bugungi globallashuv davrida ushbu san’at turlarini asrash va ilmiy o‘rganish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.11.2017 yildagi PF-5242-son Farmoni.
- 2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.06.2023 yildagi PF-91-son Farmoni.
- 3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.07.2024 yildagi PF-104-son Farmoni.
- 4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.06.2025 yildagi PQ-207-son Qarori.
- 5 O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali
- 6 Azimova D. O‘zbekiston zargarlik merosi // San’at. – 2021. – №4. – B. 22–28.
- 7 Art Institute of Chicago – Bukharan jewelry collection
- 8 artic.edu
- 9 Bulatov S. O‘zbek xalq amaliy san’ati. – Toshkent, 1991.
- 10 State Museum of Applied Arts of Uzbekistan
- 11 UNESCO. Traditional craftsmanship in Central Asia. URL: <https://unesco.org>
- 12 Nazilov D. A. Kultovo-mifologicheskie traditsii i simboli v zodchestve sentralnoy Azii // Molodoy ucheniy. – 2020. – № 9 (113). – S. 1228-1230. – URL: <https://moluch.ru/archive/113/29280/> (murojaat etilgan sana: 06.07.2025).
- 13 Rahmonov Q. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. – Toshkent, 2010
- 14 Karimov F. Buxoro amaliy san’ati an’analari. – Toshkent, 2019.
- 15 Cultural Legacy of Uzbekistan in World Collections (WOSCU/World Society project)
- 16 Общество Узбекистана

10-Iyun, 2026-yil

17 Xakimov A. Iskustvo Uzbekistana: istoriya i sovremennost//San’at, 3/2010.

18 Hakimov A.A. O‘zbekiston san’ati tarixi: qadimgi davr, o‘rta asrlar, hozirgi zamon. – Toshkent: Zilol-buloq, 2022.